

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA USULLARINI QO'LLASH



Elmurodova Mavluda No'monovna

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 96-sonli umumiy
o'rta talim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fani darslarida yangi pedagogik texnologiya va usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikmasini samaradorlikni oshirish masalasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagogik texnologiya, metodika, milliy qadriyat.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 –sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi.

PISA –o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning 3 yo'nalishdagi: o'qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo'lmasin, avvalo, uning zamirida o'qish yo'nalishiga alohida urg'u beriladi. O'qish –matnni tushunish demakdir. Shuning uchun ham biz-ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmamizdagi bu mas'uliyatni to'liq anglashimiz kerak. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish jarayonida ta'lim tizimimizda bir qancha bo'shliqlarga

duch kelinyapti. O'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini hayotga qo'llay olish darajasi yaxshi emas. Xalqaro baholash dasturlari shu kabi kamchiliklarni bartaraf etgan holda dunyo bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asos bo'ladi.

Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchiga har tomonlama mukammal ta'lim-tarbiya berish uchun universal (qomusiy) bilimga ega bo'lmog'i kerak. Pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodi; o'qituvchi amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyihasi; o'qituvchining ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida intensiv shakllantirish jarayoni; o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lidan o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir.

Keng foydalaniladigan usullar "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqqimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni takrorlash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi va bilimini namoyon etishga harakat qiladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar biliming mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng

qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlariga bo'lingan xolda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslahatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi. Ta'lim texnologiyasining konferentsiya usullaridan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usul parallel guruhlar o'rtasida o'tkaziladi. Guruhlar bir-biriga savol yo'llaydilar. Savol bergan o'quvchi ekranda namoyon bo'ladi va parallel guruh o'quvchilariga savolini aytadi. Darsda o'tirgan o'quvchilar javob beradilar. To'g'ri javob uchun 5 ballni qo'lga kiritadilar. Chorak davomida guruh ballari hisoblab boriladi va semestr oxirida eng faol guruh aniqlanadi. Bu usul o'quvchilarni izlanishga, nutqini ravon bo'lishiga, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga undaydi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qiladi. adi. "Charxpalak". Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

"Charxpalak" texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tan

lab oladi;

-o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

-har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagi vazifani berishi mumkin:

Mavzu: So'z ma'nosining ko'chish usullari. Vazifa: Berilgan gaplardagi ma'no ko'chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo'yning.

Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o'zi qiziqqan axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo'lib yetishshishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, darsning sifati, samaradorligi o'qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg'or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o'rin tutadi. Ta'lim sohasida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferentsiya usulidan foydalanish o'quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTI:

1. Ta'lim sifatini baholash bo'yichaxalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019.-6-bet.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T. : 2010.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263b.
4. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O 'zbekistonda ilm-fan va ta 'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3), 71-73.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq. 1997.
6. Qosimova A.X., Xoliqova F.A.. // Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2004. 52 b.
7. Usmanova G.A. Tajriba tadqiqot maydonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. // Jurnal Ta'lim texnologiyalari No1, 2012, b. 29,32.
8. Davlat Talim Standartining boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi (yangi tahrir) 2010 y.